

**O`SMIR YOSHDAGI O`QUVCHILAR IJTIMOIY QIZIQISHLARINING
PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK OMILLARI**

Pirmatova Nuriya O`ktam qizi¹

¹ KIUT Samarqand filiali Psixologiya yo`nalishi 1-kurs magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.02.2025

Revised: 08.02.2025

Accepted: 09.02.2025

ushbu maqolada o`smir yoshdagi o`quvchilar ijtimoiy qiziqishlarining pedagogik hamda psixologik omillari ko`rsatib o`tilgan.

KALIT SO`ZLAR:

*o`smirlilik davri,
psixologik omillar,
dunyoqarash, idrok.*

KIRISH. O`qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o`smirlilik davri psixologiyasini bilish pedagogik nuqtai nazardan juda muhimdir. Chunki bu davrda bola juda qiziquvchan va tez og`uvchan bo`ladi. Shuning uchun har bir pedagog o`quvchi qanday xarakterda ekanligi, nimalarga nisbatan qiziqishi yuqori ekanligini vaqtida anglashi zarur.

Asosan o`smir yoshdagi bolalarni 11-15 yoshdagi bolalar ya`ni 5-8-sinf o`quvchilari tashkil etadi. Bu davr o`z navbatida o`tish davri deb ham ataladi. Chunki o`smirlilik yoshida bolalikdan kattalikka o`tish jarayoni sodir bo`ladi. Endi bolalarda dunyoqarashning kengayishi, fikrlarini batafsil tushuntira bera olish qobiliyatları shakillanib boradi.

O`smirlilik davri organizmning jo`shqin o'sish davri hisoblanadi. Bu davrda bola fiziologik va intellektual jihatdan tez rivojlanadi. Shuning bilan birga o`smir organizmida gormonal o`zgarishlar ham sodir bo`ladi. Shu sababli o`smirlarda tashqi muhitga, atrofdagilarga va narsalarni bilishga bo`lgan qiziqish ortadi. Narsalarni ongli ravishda idrok qila boshlaydi. Masalan ilgari o`quv materialini ma□nosini tushunmay yodlab olishga odatlangan o`smir, endi zarur o`rinlarni mantiqiy tafakkur va xotiraga tayangan holda o`zlashtirishga harakat qiladi. O`smirda psixik jarayonlar keskin o`zgarishi bilan aqliy

faoliyatida ham burilishlar sezildi. Masalan: shaxslararo munosabatlarda, o`quvchi bilan o`qituvchi muloqotida, kattalar bilan o`smirlarning muomalasida qat`iy o`zgarishlar vujudga keladi. Kattalarning yo`l-yo`riqlariga, talablariga muloyimlik bilan hech qanday e`tirozsiz javob qaytarib yurgan o`smir endi ularga tanqidiy munosabatda bo`la boshlaydi. Ba`zida esa narsalarni noto□g`ri idrok qilish natijasida, o`zi anglamagan holda keraksiz ishga qo`l urishi va vaqtini behuda sarflashi mumkin.

O`smirlarda idrok, xotira, tafakkur va barcha bilish jarayonlarining xususiyatlari **psixologik omillar** hisoblanadi. Ulardan eng muhimi bo`lgan idrokning o`smir qiziqishiga ta□siri benihoya katta.

Idrok - sezgi a`zolarimizga bevosita ta`sir etib turgan narsa va hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishidir. Idrok haqida adabiyotlarda olimlarimizning bir qancha fikrlari mavjud. Jumladan V. Karimova □ Psixologiya □ o`quv qo`llanmasida □ Idrok bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko`plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo`lgan ob`ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni taminlaydi□ deya tarif beradi. M. Vohidovning □ Psixologiy□ darsligida esa idrok deb sezgi a`zolarimizga ta`sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishga aytildi, deb keltiriladi.

Har qanday inson ko`rgan, eshitgan narsasini fikrlash orqali idrok qiladi. Shu jumladan o`smirlarda ham. Ayniqsa o`smirlarda yoqtirgan kishilarga taqlid kuchli bo`lganligi sababli, o`z ideallariga o`xshashga harakat qiladi. Masalan, o`smir yigitlarda yurish turishning o`zgarishi, kiyinishing o`ziga xosligini oladigan bo□lsak, qizlarda soch turmaklarida o`zgarish va shunga o`xshash holatlarni ko`rishimiz mumkin. Ya□ni dastlab o□smirlik davridan boshlab o`g`il va qiz bolalarda idrok qilish jarayonida tafovutlar sezila boshlaydi (1-jadval).

1-jadval

Idrok	Yigitlarda	Qizlarda	Ta`sir etuvchi omillar		Aniqlash usullari
			Ijobiy	Salbiy	
Sezgi a`zolariga bevosita ta`sir etib turgan narsa va hodisalar obrazlarini kishi ongida	Ko`rgan eshitganlarini o`zi sinab ko`rish natijasida idrok etadi.	Atrofda bo`layotgan voqelikni ma`lum darajada hissiyotga berilgan holda idrok etadi.	Kitob, badiiy asarlar, she`riy to`plamlar, fan klublari, qo`shimcha mashg`ulotlar	Yoshiga nisbatan to`g`ri kelmaydigan va qo`rqinchli filmlarni tomosha	Test, so`rovnama, suhbat, kuzatish, aqliy faoliyatni aniqlovchi mashg`ulotlar,

bir butun holda aks ettirilishi		Qizlarda 2X xromosomalar bo`lishi tufayli yigitlarga qaraganda ranglarni to`g`ri va aniq idrok qiladi.		qilish Kattalarni ng noo`rin harakatlari	savol - javob
---------------------------------	--	--	--	--	---------------

O'smir shaxsi rivojlanishning muhim omili uning shaxsiy faolligi □ shaxsiyat, o'zini e'tirof etish va aniqlash jarayoni faol kechadi □ biroq bu jarayon bir tekis emas.

Bir tomondan o'smirlarda «kattalik» namoyon bo□la boshlaydi, boshqa tomondan esa hali «bolalik» qoladi. O'smirlarning rivojlanishining umumiy yo□nalishlari turlicha bo□lishi va har bir yo□nalish ko'plab variantlarga ega bo`lishi mumkin. Bu masala muhim pedagogik ahamiyatga ega.

O`smirlarning qiziqishlariga **pedagogik omillar**, ya`ni ijtimoiy institutlar, oila, maktab, ta`lim muassasalari faoliyati ham o`z ta`sirini ko`rsatadi. O'smir yoshidagi o`quvchilarda fikrlar tez o`zgarganligi sababli bugun bir kasb egasi bo`lsa, ikkinchi kun boshqa kasb egasi bo`lishni xohlab qoladi. Qiziqishlarida asosan oila muhim ahamiyatga ega. Chunki kattalar o`zi erisha olmagan orzu-havaslarga bolalarini tayyorlab borishi yoki oilada ota harbiy kasb egasi bo`lsa bola unga monand ravishda tarbiya olishi natijasida bu kasbga qiziqish shakllanib borishi mumkin. Yoki, talim muassasalarida o`quvchi o`qituvchining ijobiy sifatlariga taqlid qilgan holda unga o`xshashga harakat qilishi mumkin. Masalan, maktabda fizika o`qituvchisi boshqa fan o`qituvchilariga qaraganda o`z fanini kuchliroq bilishi va buni amaliyotda qo`llay olishi o`quvchilarni fanga qiziqtira olishi natijasida bolada shu fanga qiziqish uyg`otishi mumkin. O'smir qiziqishlarini shakllanishida tashqi muhit, o`rtoqlar davrasini oladigan bo`lsak, bunda bola o`z tengqurlari nimalar va qanday ishlar bilan shug`ullanishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o`rtoqlar qaysi faoliyat bilan ko`proq shug`ullanmoqda o`qish faoliyatimi, mehnat faoliyatimi yoki boshqa bir tadbirlarmi bu o`smirni shakllanishiga juda katta ta`sir ko`rsatadi. Bolani to`g`ri yo`lga solishda uni qo`llab-quvvatlashda mahalla ham asosiy o`rinni egallaydi. □ Bir bolaga yetti mahalla ota-onal degan fikr bejiz emas albatta. Mahalladagi nuroniylarning nasihatlari, yoshlarga to`g`ri o`rnak bo`lishi ham bolaning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoki, umuman aksincha bo`lishi mumkin. Ijtimoiy muhitning noto`g`ri ta`siri natijasida boladagi

ijobiy sifatlar salbiy tarafga o`zgarishi, qiziqishlari so`nib borishi mumkin. Har bir shaxs dunyoga kelganda ma`lum bir layoqat bilan tug`iladi uni shakllantirish, qobiliyatga aylantirish va tarkib toptirish ijtimoiy muhitga bog`liq.

Umuman olganda o`smirlilik davri boshqa davrlardan taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Bu davr inson kamolotining yuqoriq bosqichga ko`tarilishi bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, o`smir yoshdagi o`quvchilar qiziqishlari ko`p qirrali jarayon hisoblanadi. Unga doim oila, maktab, tashqi muhit tasir etib turish natijasida rivojlanib boradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. E.G`oziyev □Ontogenet psixologiyasi□
2. □Umumiy psixologiya□ Majmua
3. R.Chaldini □Ta`sir psixologiyasi□
- 4.M.Sekman □Bolalar muvaffaqiyatga qanday erishadilar□
- 5.Жаббарова, Ю. (2024). Chet ellik talabalar uchun lingvistik va madaniy komponentlarni o `z ichiga olgan darsliklar va o `quv qo `llanmalarini yaratish. Лингвоспектр, 3(1), 180-184.
- 6.Xujamuradovna, J. Y. (2024). MATN SHAKLLANISHIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING O `ZIGA XOS O `RNI. worldly knowledge conferens, 8(2), 71-73.
- 7.Xujamuradovna, J. Y. (2024). “QARINDOSHLIK” KONSEPTI SEMANTIK KO ‘LAMINING YAQIN VA UZOQ HUDUDLARIGA BIR NAZAR. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 5(2), 1468-1470.
- 8.Жаббарова, Ю. (2023). Значение интеграционных процессов в образовании. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 57-64.
- 9.Жаббарова, Ю. (2023). Образование молодежи–судьба народа, прогресс родины. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 48-56.
- 10.Жаббарова, Ю. X. (2023). ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «РОДНЯ» В УСЛОВИЯХ ДИСКУРСА. In НАУЧНЫЕ РЕВОЛЮЦИИ: СУЩНОСТЬ И РОЛЬ В РАЗВИТИИ НАУКИ И ТЕХНИКИ (pp. 81-83).

-
- 11.Жаббарова, Ю. (2022). KINSHIP TERMINOLOGY AS AN IMPORTANT ETHNOGRAPHIC AND HISTORICAL SOURCE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(5).
- 12.КОННОТАЦИЯ, К. Т. И. П. Жаббарова Юлдуз Хужамуродовна. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY.
- 13.Абдулазизова, С. М., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 94-96.
- 14.Мадрахимова, З. Ф. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 94-97.
- 15.Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.
- 16.Nazim, B. (2024). THE USE OF FACT-CHECKING INSTRUMENTS IN ENHANCING MEDIA LITERACY. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 440-444.
- 17.Nazim, B. (2024). ENHANCING INFORMATION SECURITY THROUGH IMPROVED MEDIA LITERACY MODULES. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 235-239.
- 18.Ziyodullayeva, K., & Bo'ronov, N. (2024). FAKE NEWS AND THEIR ROLE IN PROPAGANDA MATERIALS. Развитие и инновации в науке, 3(8), 55-57.
- 19.Бўронов, Н. (2022). МЕДИАТАЪЛИМ ФЕЙК МАҶЛУМОТЛАРГА ҚАРШИ ҚАРШИ МЕДИСАВОДХОНЛИКНИ ОШИРУВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА. RESEARCH AND EDUCATION, 1(6), 241-250.
- 20.Khumora, Z., & Nazim, B. R. THE ROLE OF THE INTERNET IN THE SPREAD OF FAKE INFORMATION.